

## TEXNOLOGIK TA'LIM YO'NALISHIDAGI TALABALARI UCHUN “YOG'OCHLARGA MEXANIK ISHLOV BERISH” KURSINI O'RGANISH VA BILIMLARINI SHAKLLANTIRISH

**Soliyeva Gulhayo Hoshimjon qizi**

*Farg'ona davlat universiteti texnologik ta'lim kafedrası magistri*

**Annotatsiya:** *Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimiga doir o'zgarishlar va islohotlardan ko'zlangan maqsad har bir yosh avlodni bilimli, salohiyatli har tomonlama barkamol etib tarbiyalashdan iboratdir. O'quvchilarga ta'lim tarbiya berishda interfaol usullardan foydalanish dars sifatini oshirib yuqori samaradorlikka erishishning zaruriy shartidir. Ta'lim muassasalarida texnologiya darslarida bolani kelajakda qanday kasb egasi, qanday kadr bo'lib yetishishini aniqlab beradi hamda milliy qadriyatlarga yo'g'riligan an'analar, qadimiy kasblar, hunarlar o'rgatilib boriladi. “Yog'ochlarga ishlov berish” fanini texnologik ta'lim yo'nalishlarida o'qitishning o'ziga xos usullari fanning oldiga yangicha fikrlash, yangicha tafakkur, milliy mafkuraning keng qamrovli sifatlarini shakllantirish vazifalarini qo'yadi. Shu asosga ko'ra ta'lim muassasalarida “Yog'ochlarga ishlov berish” fanini o'qitishda kreativ texnologiyalar, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish bugungi kunning dolzarb muammosiga aylandi.*

**Kalit so'zlar:** *va iboralar. Texnologik ta'lim, kasb-hunar, fan, texnika, materiallarga ishlov berish, fotoelektrik, elektromagnitli rele, avtomatik qurilmalar.*

Kirish. Ilm-fan sohasida mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlar, vatanimizning kelajagi, istiqboli, birinchi navbatda yoshlarning tarbiyasiga, ularni har tomonlama bilimli, yetuk, barkamol qilib voyaga yetkazishga, o'z vataniga sadoqat ruhida tarbiyalashga bog'liq bo'lib, bu murakkab jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish mustaqil mamlakatning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida “Ta'lim sifatini oshirish- Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir”. Shu bois, birinchi navbatda e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab quvvatlashga qaratamiz. “Najot- ta'limda, najot-tarbiyada, najot-bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”, deb ta'kidlaydi.

Binobarin Prezidentimiz tomonidan 2023 yilni “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili ” deb nomlashni taklif qilganligi ham bu fikrni yana bir bor tasdiqlaydi



Bugungi davr, zamon rivojlangani sari har bir buyum, narsaga bo'lgan e'tibor yanada kuchayib uni dizayni, sifati, yaroqliligi insonlarni qiziqтира boshladi. Taklif oshgani sari talab takomillashib bormoqda. Har bir kasb, hunar insonda yoshligidan rivojlanib boradi. Shakllanadigan kasb egasi bolaligidanoq qiziqish, sharoit, kelib chiqishi, to'g'ri yo'naltirilganligi va kasbni mukammal o'rganib, shu sohada yetuk kadr bo'lishi bu jamiyatni, davlatni kelajagi uchun hizmat qiladi. Biz bu borada poydevor bo'lgan ilk qadam ya'ni, maktabda o'qish jarayonlarida kasbga yo'naltirish, yosh avlodni qiziqishlarini, iste'dodlarini hisobga olish orqali shakllantiramiz.

Mavzuning dolzarbligi: Maktab darsliklarida ya'ni texnologiya darslarida bolani kelajakda qanday kasb egasi, qanday kadr bo'lib yetishishini aniqlab beradi. 5-9 sinflar uchun texnologiya fanida yog'ochga ishlov berish mavzularini keng yoritib berish, avtomatik sistemalar yordamida ishlov berish, nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarni o'ziga xos ravishda interfaol metodlardan foydalanib tashkil etish, nazariy mashg'ulotlarda olingan bilimlarni amalda hayotiy tajribalar asosida mustahkamlash juda muhimdir.

Asosiy qism. Texnologiya darslari osondan murakkabga tomon yetaklab boradi. Bunda boshlang'ich sinflarda oddiy narsalar, masalan qog'oz bilan ishlash, plastilin bilan ishlash orqali ularda kasbga qiziqishni ilk alomatlarini aniqlanadi. 5-6 sinflarda esa milliy qadriyatlarga yo'g'riligan holatda an'analar, qadimiy kasb-hunarlar o'rgatilib boriladi. Masalan, aynan shu sinflarda yog'och materiallarga ishlov berishni birinchi bosqichi tushintirib boriladi.

Oliy ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari uchun o'zining kundalik ishida o'qitish mazmuni, fan, texnika va madaniyatining hozirgi yutuqlarini to'la aks ettirishmog'i, fan-texnikani ildam sur'atlar bilan borayotgan hozirgi tez moslashib keta oladigan mutaxassislar, aniqrog'i, keng yo'nalishli mehnat o'qituvchilari tayyorlab bermog'i kerak.

Bo'lajak o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi masterlari o'quvchilarning ijtimoiy foydali mehnatlarini tashkil etuvchi pedagoglar tayyorlash ishlarini kuchaytirish, maktabning turmush bilan bog'lanishini mustahkamlash, o'qitishini unumli mehnat bilan qo'shib olib borish masalasini hal qilishga yoshlarning umumtexnika fanlari va Texnologiya fani bo'yicha mutaxassis pedagoglar bo'lib yetishishlarida o'quv ustaxonalarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar katta o'rin tutadi.

Texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash borasida pedagogika institutlarining Texnologiya fani yo'nalishlariga birlashtirilgan o'quv ustaxonalarida samarali ishlar qilinib ko'plab malakali kadrlar yetishtirib chiqarilmoqda.



Shunga qaramasdan, respublikamizda o'quvchilarga texnologiya fani berish, kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish ulrga ishlab chiqarish jarayonlarini o'rgatish o'quv ustaxonalarini ilmiy asosda tashkil etish, ularda o'tkaziladigan mashg'ulotlarning sifatini oshirish, o'quvchilarda mehnat malakalarini shakllantirishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda.

Shu bilan bir qatorda shuni ham xulosa qilish mumkinki, yangi texnik vositalar yangi texnologiyalar ta'limda yangi tartib qoidalarga kiritish uchun eng muhim komponentlardan biridir. Biroq ularni qanday qilib tadbiiq etish va amalda foydalanishni bilish aslida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Buning uchun maxsus tayyorgarlik, katta kuch va ko'p vaqt sarflash lozim, ya'ni ta'limda innovatsion jarayonlariga tadbiiq etilish bilan, o'qituvchining roli pasayadi emas, balki o'quv-tarbiya jarayoninig bosqichlari yana ham ortadi. Bu esa pedagogikadan o'z ilmini yangidan, tanqidiy tahlil etishini talab etadi. Chunki yangi tartib qoidalardan foydalandimi yoki axbarot manbai sifatida kelib ketadimi, bu narsa ayni o'qituvchiga bog'liq. O'qituvchi o'quv texnologiyasining bevosita tartib qoidalarga jiddiy tayyorlangan, yo'l-yo'riq olgan, moslangan, ruxlangan va moyil bo'lishi lozim.

Shularni nazarda tutib, o'quvchi, talabalar uchun kuzatilgan natijalar, olingan malakalar asosida DTS ga mos holdagi o'quv ustaxonalari va mehnat o'qituvchilarini tayyorlash rejalashtirildi. Texnologik jarayonning parametrlarini rostlaydigan yoki ularni boshqaradigan avtomatik sistemalarda ijrochi mexanizmlardan foydalaniladi. Ular datchikning signali bo'yicha rostlovchi organi harakatga keltiradi. Ko'pincha ijrochi mexanizm sifatida dvigatellaridan foydalaniladi, bu dvigtellardagi valning aylanishi rostlovchi organing surilishiga olib keladi. Rostlovchi organ normadan chetlashgan parametrta ta'sir etadi, masalan suyuqlik yoki gazning sarflanishini kamaytiradi. Avtomatikada bunday qurilma sifatida xar hil relativ xizmat qiladi. Avtomatik sistemalarda elektron, fotoelektrik, elektromagnitli relelardan foydalaniladi

Xulosa. Dars jarayonlarida yog'ochga qanday ishlov berish, ularni sifat darajasi va eng asosiysi uni haridorgirligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda texnika rivojlangani sari barcha sohalarda rivojlanish jadal suratlarda o'sib bormoqda. Hozirgi zamon tadbirkorlari aynan avtomatik qurilmalar orqali inson omilini kamaytirib daromadni ko'paytirishni maqbul yo'l deb tanlashdi. Aynan yog'och materiallarga ishlov berishda avtomatik qurilmalardan foydalanish ham huddi shu samarani bermoqda. Yog'och materiallarga ishlov berishda avtomatik qurilmalarni o'rni va ahamiyati yuqori. Yog'och bilan ishlashda uni kimyoviy xossalari, texnologik xossalari, uni haroratga, namlikka va shu kabi ta'sirlarga chidamliligi, uni qanday quritishi va saqlanganligini inobatga olgan holda foydalanish maqsadga muvofiqdir.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yakubjon Usmonov, Soliyeva Gulxayo Xoshimjon qizi //YOG‘OCHGA ISHLOV BERISHDA AVTOMATIK BOSHQARISH SISTEMASIDAN FOYDALANIB O‘QITISH// O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 12-SON. 19.10.2022. 727-732 betlar.

2. Tursunboy Axmedov, Siddikova Ranoxon Abdulxay qizi, Xusanova Lobarxon Murodovna //Basics of Wood Materials and Woodworking Technology// Texas Journal of Engineering and Technology. <https://zienjournals.com>. VOL. 9, JUNE, 2022. 100-102 pages.

3. Yakubjon Usmanov, Ikromova Komila Hamidullo qizi //Use of Innovative Technologies in Teaching Electrical Engineering// Texas Journal of Engineering and Technology. <https://zienjournals.com>. VOL. 9, JUNE, 2022. 97-99 pages.

4. Salim Madrahimovich Otajonov, Qaxxorova Barchinoy Abdiraximovna //Polymer and Composition Materials// Texas Journal of Engineering and Technology. <https://zienjournals.com>. VOL. 9, JUNE, 2022. 103-106 pages.

5. Otazhonov S.M., Yunusov N., Qakhkhorova B. //DEFORMATION CHARACTERISTICS OF PbTe-Te POLYCRYSTALLINE FILMS// SCIENCE AND WORLD International scientific journal № 3 (103), 2022. 27-31 page

6. Отажонов С.М., Юнусов Н., Қаххорова Б //ДЕФОРМАЦИОННЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПОЛИКРИСТАЛЛИЧЕСКИХ ПЛЕНОК PbTe-Te// Деформационный наука и мир 2022 №3.

7. Qaxxorova Barchinoy Abdiraximovna, Ikromova Komila Hamidullo qizi, Nazirova Arofatxon Maxmudjon qizi //INNOVATIVE METHODS USED IN THE EDUCATIONAL PROCESS// IJODKOR O‘QITUVCHI JURNALI. 5 IYUN / 2022 YIL / 19 – SON. 277-283 betlar.

8. Ikromova Komila Hamidullo qizi, Qaxxorova Barchinoy Abdiraximovna //MATERIALS SCIENCE AND ITS PROBLEMS// IJODKOR O‘QITUVCHI JURNALI. 5 IYUN / 2022 YIL / 19 – SON. 288-292 betlar.

9. Otazhonov S.M., Botirov K.A., Khalilov M.M., Yunusov N //EFFECT OF DEFORMATION ON DEFECT MIGRATION IN PHOTSENSITIVE THIN FILMS CdTe: Ag AND PbTe// Science and World International scientific journal № 6 (94) июн 2021 ISSN 2308-4804 . IF 0,325 Pages 11-16

10. Отажонов С.М., Ахмедов Т., Усмонов Я., Ботиров К.А., Халилов М.М., Юнусов Н. //ВЛИЯНИЕ ВНУТРЕННЕГО НАПРЯЖЕНИЯ НА ДЕФОРМАЦИОННЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПОЛИКРИСТАЛЛИЧЕСКИХ





ПЛЕНОК PbTe С ИЗБЫТКОМ ТЕЛЛУРА И СВИНЦА// Science and World International scientific journal. 2021. № 3 (91). 18-22 pages.

11. T Akhmedov , S M Otajonov, Ya Usmonov, M M Khalilov, N Yunusov and A K Amonov // Optical properties of polycrystalline films of lead telluride with distributed stichiometry// Journal of Physics Conference Series/ 1889(2021)022052 doi:10.1088/1742-6596/1889/2/022052. 1-8 pages.

12. M.M.Axmedov, Bo'tayeva Gulmira Boxodirjonovna //TEKNOLOGIYA FANIDA TEKNOLOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH// O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 19.10.2022 12-SON 745-750 betlar.

13. M.Akhmedov, G.T. Khojkarimova, G.B.Butayeva //Didactic features of the method of preparation of "innovative development of the topic" based on the principle of "lifelong learning" in the organization and improvement of management activities of technological educational// Modern Journal of Social Sciences and Humanities ISSN: 2795-4846 Vol. 4 (2022)

14. M.M. Ahmedov, Z.A.Teshaboev, G.Bo'taeva, M.Madaminova // Pedagogik mahorat ta'lim jarayonining muhim omili // ishlab chiqarishning texnik, muhandislik va texnologik muammolarining innovatsion yechimlari mavzusidagi xalqaro miqyosdagi ilmiy-texnik anjumani materiallari to'plami 4- Qism (2022 yil 28-29-oktabr)

15. M.M.Ahmedov, G.B.Butayeva //Texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish hususiyatlari// Interdiscipline innovation and scientific research conference International scientific-online conference. Part 4 (15.12.2022yil)LONDON 2022 49- 54 pages.

16. G.B.Butayeva, R.H.Boyboboyev //UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TEKNOLOGIK TA'LIM JARAYONLARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH// International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. Volume-11| Issue-4| 2023. 2088-2094.

